

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**SOATOVA SHOXISTA ABDUMUSA耶EVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA  
LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limga menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Soatova Shoxista Abdumusayevna**

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish ..... 3

**Соатова Шохиста Абдумусаевна**

Развитие лидерских качеств у студентов высших образовательных  
учреждений..... 21

**Soatova Shokhista Abdumusaevna**

Development of leadership qualities in students of higher educational  
institutions..... 41

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of publications..... 45

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**SOATOVA SHOXISTA ABDUMUSA耶EVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA  
LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.07 – Ta'limga menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4665-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xaydarov Mamat Eshkulovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xakimova Muxabbat Fayziyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shoymardanov Tuymurod Turdialihevich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 27 02 soat 15:00dagি majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20; faks: (99871) 202-01-21, e-mail: [info@bimm.uz](mailto:info@bimm.uz))

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (28-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "05" 02 da tarqatildi.  
(2026 yil "05" 02 da 28-raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**U.Sh.Begimkulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**A.S.Djurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

  
**Ya.U.Ismadiyarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon oliy ta’lim muassasalarida uzlusiz ta’lim tizimi uchun tayyorlanayotgan kadrlarning boshqaruvchanlik xususiyatlarini rivojlantirish, kasbiy malakalar strukturasiga kiruvchi liderlik qobiliyatlarini shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuvlar markazida turuvchi “personal ideas” (shaxsiy fazilatlar)ning layoqatlilik talablarida aks etishini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Harvard College – Leadership institute (AQSHning Garvard universiteti), Stanford Leadership Development program (SLDP – Stenford universiteti), Cambridge University Leadership Programme (Angliyaning Kembrij universiteti), Todai Leadership Development Programme (TLDP – Tokio universiteti), Sydney Talent and Leadership Program (Sidney universiteti), London School of Economics Executive Leadership Programme (London ekonomika maktabi) kabi dasturlari asosida talabalarning liderlik, tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan xalqaro tajribalar, amaliy mashg‘ulotlar yordamida yangi lider yoshlarni tarbiyalaydigan ta’limiy va tarbiyaviy muhit yaratilmoqda.

Dunyo bo‘ylab oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida kelajakdagi mutaxassislarining innovatsion fikrlash qobiliyati, ijodkorlik saloxiyati, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimlarini takomillashtirish, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish, kasbiy imkoniyatlari va kompetensiyalarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Liderlik sifatlarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qila olish, nizolarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlashni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy salohiyatini yuksaltirish, jamoa ichidagi samarali, ijobiy kommunikatsiyani shakllantirishga oid didaktik, psixologik va metodik asoslarni rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini mustahkamlash, shuningdek, xalqaro darajada raqobatbardosh bo‘lgan har tomonlama yetuk kadrlarni tarbiyalash uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratilmoqda. “Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish”<sup>1</sup> ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu asosda, talabalarning liderlik sifatlariga kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida qarash, ulardagи liderlik sifatlarini rivojlantirish modellarini takomillashtirish, bo‘lajak kasbida egallanishi lozim bo‘lgan menejerlik, pedagogik malakalarini oshirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 13-iyul PF-6260-son “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.05.2018 yil

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-sonli “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori // Xalq so‘zi. – T., 2021. – 19 yanvar. – B. 1-2.

PQ-3755-son “Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Shaxsda liderlik, ma’naviy, intelektual, liderlik va boshqaruvga oid sifatlarni rivojlantirishning siyosiy, falsafiy, pedagogik masalalari yuzasidan R.X.Djo‘rayev, S.T.Turg‘unov, Z.K.Ismailova, S.Iskandarov, Y.U.Ismadiyarov, O.Xasanov, M.T.Mirsoliyevalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, B.X.Xodjayev, X.O.Qodirov, M.J.Mutalipova, G.N.Ibragimova kabi olimlar tomonidan pedagogik ta’lim muassasasi talabalarida ijtimoiy faoliyat va liderlik salohiyatlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan shaxsda va talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalari va modellarini takomillashtirish borasida I.V.Drigina, N.S.Jerebova, A.B.Zorina, A.B.Ivanova, R.L.Krichevskiy, I.I.Logvinov, A.I.Davletova, G.Y.Golyeva, A.Murashovlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Horij mamlakatlarida oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning metodik ta’minotini yaratish, liderlik va boshqaruv uslublari masalalari bo‘yicha I.Adizes, C.Argiris, D.A.Schon, R.Blanchard, M.Miller, A.Maslou, R.M.Stogdill, K.R.Rodjerslar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta’kidlab o‘tkanimizdek, ijtimoiy-gumanitar soha tadqiqotchilari tomonidan liderlik sifatlarini rivojlantirish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, zamonaviy oliy ta’lim muhitida talabalar orasida liderlik sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va psixologik jihatlari, metodologik asoslari hamda ijtimoiy ahamiyatini chuqur o‘rganish, mavjud uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti (hozirda O‘z.MPU) ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni sifatlari tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan. (2021-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning zarur ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga doir kompetensiyalar aloqadorligini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish strukturaviy-mazmunli modelini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti, Namangan davlat universitetining 335 nafar talabalari jaib qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so’rovlar, test o’tkazish, seminar-treninglar, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik (ma’lumotlarni statistik qayta ishslash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.) kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari qat’iy shaxsiy pozitsiyaga egalik ko’nikmalari va avtonom qaror qabul qilish qobiliyatini integral diagnostika doirasida kompleks tashxislash asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishga doir kommunikativ, tashkiliy, instrumental va kasbiy kompetensiyalar adaptiv o’quv trayektoriyasiga professional hamkorlik maydonchasi orqali mustaqil ta’lim va an’anaviy mashg’ulotlarni kiritish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli talabalar tiplarini “Men-konsepsiya”si bilan bog’lab, nostonart pedagogik vaziyatlarni yechish kompetensiyalari SOFT SKILLSlar integratsiyasi asosida takomillashtirilgan;

talabalarda liderlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi “Ishtirokchi”, “Murabbiy”, “Tashkilotchi” rolli vaziyatlar va kouchingli faoliyat hamkorligini qo’llab-quvvatlovchi mentorlik tizimi orqali tajribali liderlardan o’rganish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirish bo’yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilib, talabalarning liderlik sifatlari mezonlari, ko’rsatkichlari va darajalarini baholash tizimi takomillashtirilgan;

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda liderlik sifatlari “Ishtirokchi”, “Murabbiy”, “Tashkilotchi” kabi shaxsiy sifatlarini namoyon qilishga qaratilgan texnologiyasi takomillashtirilgan;

“Oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha trening senariylari”, “Oliy ta’lim muassasalarida milliy tarbiya texnologiyasini takomillashtirish”, “Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak menejerlar faoliyatiga sinergetik yondashuv” nomli metodik qo‘llanmalar nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi xulosalarning tajriba va kuzatishlarga asoslanganligi hamda realligi, olingan natijalarning eksperimental tahlillarga tayanib ishlab chiqilganligi, talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyani belgilashda sohaga oid fundamental ilmiy adabiyotlar hamda tan olingan tajriba usullaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik tiplari, liderlik sifatlarni tabaqlashtirishning pedagogik imkoniyatlari, talabalarda liderlik sifatlarni rivojlantirishning strukturaviy mazmunli modeli takomillashtirilganligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini baholash tizimi hamda liderlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasidan liderlik sifatlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari qat’iy shaxsiy pozitsiyaga egalik ko‘nikmalari va avtonom qaror qabul qilish qobiliyatini integral diagnostika doirasida kompleks tashxislashga oid takliflar “Ta’lim menejmenti asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 4-dekabrdagi 4/3.2-sonli qarori, 2025-559U-809-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari mazmunan boyitilgan;

talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishga doir kommunikativ, tashkiliy, instrumental va kasbiy kompetensiyalar adaptiv o‘quv trayektoriyasiga professional hamkorlik maydonchasi orqali mustaqil ta’lim va an’anaviy mashg‘ulotlarni kiritish “Ta’lim menejmenti asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 4-dekabrdagi 4/3.2-sonli qarori, 2025-559U-809-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirishga oid professional hamkorlik maydonchasi ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli talabalar tiplarini “Men-konsepsiya”si bilan bog‘lab, nostonart pedagogik vaziyatlarni yechish kompetensiyalari SOFT SKILLS lar integratsiyasiga oid tafsiyalar “Ta’lim menejmenti asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 4-dekabrdagi 4/3.2-sonli qarori, 2025-559U-809-raqamli nashr

guvohnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli takomillashtirish samaradorligi oshgan;

talabalarda liderlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi “Ishtirokchi”, “Murabbiy”, “Tashkilotchi” rolli vaziyatlar va kouchingli faoliyat hamkorligini qo’llab-quvvatlovchi mentorlik tizimi orqali tajribali liderlardan o’rganish tavsiyalari “Ta’lim menejmenti asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 4-dekabrdagi 4/3.2-sonli qarori, 2025-559U-809-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning zarur pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlarini aniqlashga sharoit yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 24 ta ilmiy, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 6 ta xorijiy va 4 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji asoslangan, tadqiqotning O’zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, muammoning o’rganilganlik darjasni, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog’liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti ko’rsatilgan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida oliy ta’lim muassasalari talabalarida rivojlantiriladigan “liderlik” tushunchasining mazmuni va mohiyati, liderlik sifatlarini rivojlantirishga doir tadqiqot ishlarning mohiyati tahlili, liderlik sifatlarini tarkibiy qismlari, liderlik sifatlarini rivojlantirishning mavjud holati bayon qilingan.

**Liderlik** (“lead” – “yetaklash”dan “leadership”) – o’zgalarni maqsadga erishishga olib borish qobiliyati. Ushbu kontseptsiyaning boshqa talqinlari ham mavjud. Liderlik faoliyat sifatida - bu boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini o’zgartirish va va,zifalarni bajarishga undash uchun ularga ta’sir qilish jarayonidir. Shunga ko’ra, yetakchi – lider hamda ergashganlar, ya’ni unga ergashganlar so’z atamalari mavjud. “Pedagogika” atamasining grek tilidan so’zma-so’z tarjimasi bizni “bola yetaklash”ga olib keladi, o’quv-tarbiya jarayonida o’qituvchining

boshqarish vazifasini hamda uning yetakchilik vaziyatini ta’kidlaydi.

Liderlik haqidagi masala nafaqat mutaxassislarni qiziqtirib qolmay, balki jamiyat a’zosi bo’lgan har qanday inson uchun tegishlidir. Jumladan, buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy o’zining “Fozil insonlar shahri” asarida lider-rahbarga xos bo’lgan 12 ta xislat turi haqida, shu o’rinda tashkilotchilik jihatidan liderni turli fazilatlarga boy va liderlik qobiliyatları, tiplari, ijodkorligi, ko’p jihatdan ustunligi bilan ajralib turishi va ayniqsa sirli mahorat egasi bo’lishini ta’kidlaydi hamda liderlikning bir nechta muhim tarkibiy qismlarini ya’ni, yuqori intellekt, haqiqatga bo’lgan muhabbat, adolatparvarlik, adolatsizlikka toqat qilmaslik, zulmga nisbatan nafrat va qaysarlikni qoralash jihatlarini rahbarlikka talabgor shaxsda mavjud bo’lishi lozim deb topgan.

Amir Temurning zamonlar sinovidan o’tgan “Temur tuzuklari” asarida shunday yozilgan: “Boshqaruvning turli tabaqalari, yo’nalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi ma’lum bir tizim shakllangan bo’lishi darkor”.

Garvard universiteti olimlarining tadqiqotiga ko’ra, 85 % muvaffaqiyatning siri liderlarda SOFT SKILLS mavjudligidadir. Yumshoq ko’nikmalar (Soft skills) — qo’shimcha, universal ijtimoiy-psixologik ko’nikmalar. Ular kasbga bog’liq bo’lmaydi, lekin insonning hayotdagi muvaffaqiyatiga ta’sir ko’rsatadi. Odamlar bilan muomala qilish madaniyati, nizolarni hal qilish qobiliyati, odamlarni ishontirish mahorati, moslashuvchanlik, mas’uliyatlilik, puxtalik, har ishni o’z vaqtida bajarish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi xususiyatlar “yumshoq ko’nikmalar”ga misol bo’ladi. Bunday ko’nikmalar nafaqat ishda, balki hayotning barcha jahbalarida kerak bo’ladi.

O.Xasanovning “Liderlar kitobi” asarida hozirgi raqobat muhitida liderlarda quyidagi SOFT SKILLS ko’nikmalar paydo bo’ladi, xususan: muammolarni tizimli hal etish; tanqidiy tahlil; kreativlik; liderlik; harakatlarni muvofiqlashtirish; hissiy aql; o’z fikrlarini shakllantirib, ularga asoslangan qarorlarni qabul qilish; natijaga yo’naltirilganlik; muzokaralar asosida o’zaro a’loqalar; kognitiv moslashuvchanlik.

“Forbs” jurnali xulosasiga ko’ra, kelajakda quyidagi o’nta top SOFT-SKILLSlar boshqaruvni hal etadi: muammoni boshqarish; time menejment; stressni boshqarish; muloqot qobiliyati; kompaniya madaniyati; iste’molchiga yo’nalganlik; hissiyotni jilovlash; shaxsiy natijadorlik; fikrni yetkaza bilish; forsayt; o’zgarishlarni boshqarish.

Tahlil qiladigan bo’lsak, bu kabi SOFT SKILLSlarni shaxsda liderlikni, boshqaruvchanlik sifatlarini yanada rivojlanishi uchun auditoriyada, auditoriyadan tashqari oliy ta’lim muassasasida yaratilgan ijtimoiy muhitda tarkib topishida izlanishlar olib borilishi zarur.

G’arb tadqiqotlarida liderlik va uning turli konsepsiyalari dastlab kichik guruahlarni empirik tadqiq etish asosida yuzaga kelgan. Mazkur hodisani tushunish fanda rahbar va liderlik kabi ikki tushunchani qiyoslashga asoslangan. Bu kabi tadqiqotlar G.K.Ashin, N.I.Biryukov, E.B.Voronova, M.Yu.Fedorovalarning ilmiytadqiqot ishlarida har tomonlama tahlil qilingan. MDH ilmiy maktabi liderlikda rahbarlikdagi rasmiy asosga zid ravishda o’z-o’zidan, tabiiy, ya’ni erkin, norasmiy asosni ajratgan. Bizning fikrimizcha, liderlikni tushunishga oid nazariyalar va ilmiy yondashuvlar tahlili oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish zamonaviy o’qituvchi oldiga qo’yilgan vazifalarni yanada samarali

bajarishga ko'maklashadi, uning jamoadagi obro'sining ifodasi va bir vaqtda o'qituvchining kompetentliligi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlari nostandard pedagogik vaziyatlarni hal etish uchun egallangan kommunikativ-tashkiliy tajribadan mahoratli foydalanish hamda jamoaning barcha a'zolarini uzlusiz shaxsiy o'sishlari rejimini ta'minlash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Bobda liderlik sifatlarining pedagogik shart-sharoitlari, differensiyalash imkoniyatlari talabalarning improvizatsiyaga moyillik darajasini o'yinli topshiriqlar orqali bajarish, nostandard pedagogik vaziyatlarni hamda umumpedagogik talablarni tabaqlashtirish asosida aniqlashtirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlar berilgan (1-jadval)..

### 1-jadval

#### Talabalarda liderlik tiplari

Nº	Liderlik tiplari	Lider tirlarining mazmun-mohiyati
1	Lider-ijodkor	Bu yangi g'oyalar generatoridir. Bunday lider boshqalarga hal qilib bo'lmaydigan va stressli ko'rindigan muammolarni o'z zimmasiga oladi. U buyruq bilan emas, qo'l ostidagilarni hech narsaga majburlamasdan boshqaradi. Lider-ijodkor xodimlarini muhokama qilishga taklif qiladi, boshqalarning fikrini tinglaydi, g'oyani taklif qiladi, uni tinglovchilarni jalb qiladigan tomondan ko'rsatadi
2	Lider-kurashchi	Kuchli irodaga ega o'ziga ishongan lider. U o'z g'oyasi uchun kurashga kirishadi, jasorat bilan jamoani hamma yangilikka olib boradi. Bu tipdagi liderning salbiy xususiyati shundaki, u hamma narsani tez bajarishga intiladi, har bir qadamni o'ylab ko'rishga vaqt topa olmaydi. Agar u xato qilsa, u ko'pincha boshqalarni ayblaydi. Bunday xulq-atvorga ega bo'lgan odamga liderlikning transformatsion turi beriladi
3	Lider-diplomat	Diplomatik lider muzokarachi demokratik liderlik turiga ega. Bunday lider har doim hamma narsadan xabardor, vaziyatni, yashirin tafsilotlarni biladi, bu unga o'z qo'l ostidagilarga yoki sheriklariga ma'lum bir tarzda ta'sir o'tkazish imkonini beradi
4	Lider-tashkilotchi	U jamoaning ehtiyojlarini o'zinikidek qabul qilishi va adekvat harakat qilishi bilan ajralib turadi. Bunday odamlar odatda optimistik va muammolarni hal qilish uchun ishonchli ishlaydi. Tashkilotchilarni qanday qilib ishontirishni, rag'batlantirishni biladilar
5	Lider-diktator	Diktator har doim maqsadlar, vazifalar va ularni hal qilish usullarini yakka o'zi tanlaydi. U asosiy bosim vositalaridan foydalanadi – ishdan bo'shatish, jazolash bilan tahdid qiladi, qo'rquv hissini tug'diradi. Lider o'z qaramog'idagi tuzilmaga so'zsiz bo'ysunishni talab qiladigan bir qator munosabatlarni kiritadi. U xodimlarga aniq nima, kimga, qanday va qachon qilish kerakligini aytadi, shu bilan birga u boshqalarning fikrini yoki maslahatini tinglashni xohlamaydi. Muammolarni muhokama qilish, shuningdek, har qanday fikr va istaklarni bildirish tavsija etilmaydi. U har doim to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiladi va qo'l ostidagilardan qat'iy ishonch va buyruqlarni bajarishni talab qiladi

Talabalarning yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammosiga bag'ishlangan. psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili rivojlangan kasbiy sifatlarini real hayotiy vaziyatlar va stereotiplar doirasidan chiqish yo'li orqali amalga oshiriladigan hamda nostandard pedagogik vaziyatlarda tashabbus bilan

yuzaga keladigan xulqni shakllantirish omili sifatida ifodalash imkonini berdi Lider-tashkilotchi, lider-ijodkor, lider-diplomat, lider-kurashchi, lider-yupatuvchi tiplari kasbiy layoqati shaxsiy muvaffaqiyatlarga ishonch, nostandard pedagogik vaziyatlarni yaratish va yechish mahorati baholash vositalari majmuining intensiv rivojlanishini ta'minlash asosida takomillashtiriladi.

Mazkur bobda talabalarning lider-tashkilotchi, lider-ijodkor, lider-diplomat, lider-kurashchi, lider-yupatuvchi kabi liderlik tiplari Rodjersning "Men-konsepsiysi"si bilan bog'lab, nostandard pedagogik vaziyatlarni yechish kompetensiyalari SOFT SKILLSlar integratsiyasi asosida (kuchli tomonlar tahlili, shaxsiy muvaffaqiyatlarga ishonch, iroda kuchi) takomillashtirilganligi ifodalangan

Dissertatsiyada talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantrishga qaratilgan kompetensiyalarning kommunikativ, tashkiliy, instrumental va kasbiy kabi to'rt guruhi ajratilgan.

Kommunikativ kompetensiyalar guruhi quyidagilardan iborat: og'zaki va yozma nutqni mantiqiy to'g'ri qura olish salohiyati; ommaviy nutq, munozara va polemika olib borish ko'nikmalaridan foydalanish qobiliyati; nutqi kasbiy madaniyat asoslariga mos tarzda yo'naltirilganlik; talabalar, ota-onalar, hamkasblar, ijtimoiy sheriklar hamda jamoa bilan o'zaro nutqiy munozara va muzokaralarga, omma oldida nutq so'zlay olishga tayyorlik.

Tashkiliy kompetensiya turlari quyidagilar: rejalashtirish; maqsad belgilash; o'z-o'zini motivatsiyalash; o'zining va jamoa faoliyatini nazorat qilish; jamoa hosil qilish; ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuvlari va kasbiy o'z-o'zlarini aniqlashlari; ularni kasbni ongli tanlashga tayyorlash jarayonlariga pedagogik ko'makni amalga oshirish qobiliyati; o'quv faoliyatining universal ko'rinishlarini shakllantirish va o'quv-tarbiya jarayonining sifatini ta'minlash uchun ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati; ta'lim oluvchilarning hamkorliklarini, faollik va tashabbuskorliklari, mustaqilliklarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini tashkil etish qobiliyati; jamoaviy tadbirlarda ma'suliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

Instrumental kompetensiya guruhi maqsadni belgilash va uni topish yo'llarini aniqlash qobiliyati, ijtimoiy madaniyatning farqlarini tushunish, tolerantlik tushunchalarini anglash, emotsiyalarini ochiq namoyon qilish, tanqid va maqtovlarga ijobjiy munosabat, pedagogik faoliyatda improvizatsiya va ijodkorlikni namoyon qilishga moyillik, qat'iyatlilik, o'ziga bo'lgan ishonch va o'z shaxsidan qoniqish, shaxsiy sifatlar va ideal o'rtasidagi farqni anglay olish, tanqidiy tahlil qila olish.

Kasbiy kompetensiya guruhi – bu talabaning o'z kasbiy faoliyati sohasida samarali ishlashi, nazariy tayyorgarlik, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, mas'uliyatli qaror qabul qilishi, pedagogik imidjni yarata olish, jamoani boshqarish, yangilikka ochiqlik, muammolarga nostandard yechim topish, kasb etikasi va mehnat madaniyatiga rioya qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlardir.

Talabalarning yashirin sifatlarini yuzaga chiqarish, ularda bor imkoniyatlarni to'g'ri yo'naltirish, liderlik sifatlarini rivojlantrib borish, horijiy va milliy tajribalardan unumli foydalanish ta'lim jarayonida muhim vazifa bo'lib, bu jarayon

izlanuvchilardan, pedagoglardan innovatsion yondashuv va har bir talabani o‘ziga xos individual imkoniyatlar asosida rivojlantirishni talab etadi.

AQShning G‘arbiy Michigan universiteti professori Piter G. Northaus o‘zining “Liderlik – nazariya va amaliyot” asarida liderlikka quyidagicha ta’rif bergan: “Liderlik – bu boshqalarga o‘z salohiyatini namoyon etishga imkon beruvchi ijtimoiy jarayon sifatida talqin etiladi”

Oliy ta’lim talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari quyidagi bir qancha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Transformatsion liderlik yondashuvi.
2. Ta’lim orqali liderlikni rivojlantirish.
3. Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish.
4. Raqamli texnologiyalar va onlayn liderlik.
5. Global kompetensiyalar va transmilliy hamkorlik.

Yuqoridagi keltirilgan liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar talabalarni kelajakda jamiyatning turli sohalarida o‘z o‘rnini topishida muhim rol o‘ynaydi.

Shu bois, talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirish nafaqat ta’lim tizimining, balki jamiyatning barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Bu borada zamonaviy tendensiyalar, ilg‘or amaliyotlar va ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar esa kelajak avlod liderlarini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalari”** nomli ikkinchi bobida talabalarning liderlik sifatini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasasining imkoniyatlari, oliy ta’lim muassasasi talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning modeli, oliy ta’lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi bilan bog‘liq masalalar ohib berilgan.

Talabalarda liderlikni, qat’iy shaxsiy positsiyaga egalik va avtonom qaror qabul qilishni rivojlantirish oliy ta’lim tajribasining tobora muhim qismiga aylanib bormoqda. Talabalar o‘qishni tugatgandan so‘ng, ular jamoalar, bo‘limlar va oxir-oqibat butun tashkilotlarga rahbarlik qilish potensialiga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini anglaydigan, samarali, malakali xodimlarga aylanishi kutiladi.

Oliy ta’lim muassasalari zamonaviy ijtimoiy hayotning intellektual markazi sifatida nafaqat kasbiy mutaxassislarni tayyorlaydi, balki kelajak jamiyat yetakchilarini ham tarbiyalaydi. Talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirish – nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ehtiyojdir. Chunki ta’lim menejmenti sohasida faoliyat olib boradigan mutaxassislar o‘z fikrini qat’iy bildira oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsata oladigan liderlar bo‘lishi zarur.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirish nafaqat bilim, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni uyg‘unlashtirish jarayoniga aylandi. XXI asr ta’limining talabi – bu “inson kapitalini”ni yaratishdir. Shu nuqtai nazardan K.Rodjersning “Men – konsepsiysi” talaba shaxsini markazga qo‘ygan holda, ularning o‘zini anglash, o‘zini qadrlash, o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini faollashtirishda muhim psixologik asos hisoblanadi.

“Men – Konsepsiysi”ning asosiy mazmuni – insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari, o‘zini baholash, o‘zini qabul qilishidir. Ushbu konsepsiya orqali talaba o‘zining ichki “Men”ini anglab, o‘z rolini jamoadagi ijtimoiy holatlar bilan moslashtiradi.

Talabalar liderlik tiplarini “Men – konsepsiysi” bilan bog‘lab, nostandard pedagogik vaziyatlarni yechish kompetensiyalari SOFT SKILLSlar integratsiyasi orqali samarali natijalarga erishish mumkin

SOFT SKILLS – bu shaxsning ijtimoiy, kommunikativ, hissiy va ijodiy ko‘nikmalaridir. Ularni Rodjers modeli bilan integratsiya qilish liderlik sifatlari rivojini tizimlashtiradi. Rodjers nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘zini anglash darajasi, ijobiy “Men” obrazi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish istagi (self-actualization) – talabalarning ijtimoiy va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatning asosiy omildir.

Integratsiya jarayonida talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirishda quyidagi o‘zgarishlar amalga oshadi:

1. Ijtimoiy moslashuv va empatiya rivoji – Rodjersning “shartsiz qabul qilish” tamoyiliga asoslanadi. Bu liderlik faoliyatida boshqalarni tushunish, ularga samimiy munosabatda bo‘lish va ijobiy ijtimoiy muhit yaratish uchun zarur.

2. Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish – “ochiq muloqot” va “faol tinglash” (active listening) uslublari orqali talabaning muloqotda ochiqligi, ishonchli fikr almashinuvi va ziddiyatlarni konstruktiv hal etish qobiliyati rivojlanadi.

3. Hissiy intellekt va refleksiya – Rodjers modeli asosidagi “mening his tuyg‘ularimni anglash” tamoyili orqali shaxs o‘z emotsiyalarini boshqarish, stressga bardosh berish va motivatsiyani saqlab qolish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

4. Ijodiy fikrlash va o‘zini namoyon etish – Rodjersning insonparvar psixologiyasidagi “o‘sishga yo‘naltirilgan shaxs” konsepsiysi bilan bog‘liq. Bu yo‘nalish talabalarda yangilik yaratish, tashabbus ko‘rsatish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish layoqatini shakllantiradi.

5. Avtonomiya va liderlik o‘ziga ishonchini mustahkamlash – shaxsning o‘z “Men”ini anglagan holda, ijtimoiy mas’uliyatni his etish, qaror qabul qilishda mustaqillik va o‘z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Natijada, SOFT SKILLS va Rodjers modeli integratsiyasi orqali lider-shaxsning psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi va o‘zini namoyon etish qobiliyati tizimli tarzda shakllanadi. Bu jarayon ta’lim muassasalarida individual yondashuv, refleksiv treninglar, ko‘nikma asosidagi mashg‘ulotlar va muloqotli o‘quv muhitini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. (2-jadvalga qarang)

Shu asnoda oliy ta’lim muassasalari talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishning maqsadli, mazmunli va nazorat-diagnostik komponentlardan tashkil topgan va SOFT SKILLSlar bilan integratsiyalashgan modeli takomillashtirildi.(1-rasmga qarang).

### “Men-konsepsiysi”si va SOFT SKILLS integratsiyasi

SOFT SKILL turlari	Rivojlanadigan liderlik turi	“Men – konsepsiya”dagi aks etishi
<b>Communication (kommunikativlik)</b>	Lider-diplomat, yupatuvchi	“Men – muloqotchanman”
<b>Critikal thinking (kritik fikrlash)</b>	Lider-ijodkor, kurashchi	“Men – yechim topuvchiman”
<b>Teamwork (guruhda ishlash)</b>	Lider-tashkilotchi, yupatuvchi	“Men – jamoaning bir qismiman”
<b>Emotional intelligence (emotsional intellekt)</b>	Lider-yupatuvchi, diplomat	“Men – his qilaman”
<b>Adaptability (moslashuvchanlik)</b>	Barcha turlar	“Men – moslashaman va o‘rganaman”

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobda tajriba-sinov ishlari natijalari qayd etilgan. Bundan tashqari, mazkur bobda pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va vazifalari va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili berilgan.

Ilmiy-pedagogik taddiqotlar tahlili va jarayonni modellashtirish yuzasidan olib borilgan izlanishlar asosida liderlik sifatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi va “Liderlikning uch bosqichi” nomli dasturi ishlab chiqildi.

Mavzu doirasida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti hamda Guliston davlat universiteti talabalari bilan tajriba-sinov ishlari tashkil etildi va uch yil davomida kuzatuvlar olib borildi.


Tajriba-sinov ishlarida jami 335 nafar talabalar jalgan. Ta’kidlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov mohiyatiga ko‘ra, ishtirokchilarda liderlik sifatlarini aniqlashdan iborat edi.

Kompetensiyada o‘z o‘rnini aniq belgilash va egallash, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan liderlik sifatlari tarkibiga kiruvchi kommunikativ, tashkiliy va instrumental kompetensiya kabilarning majmui ko‘nikmaning oliy darajasi sifatida qaraladi.

